
Janubiy koreyalik jarrohlardan 35 nafar bola plastik operatsiya qilindi

“Sogʻlom avlod uchun” xalqaro xayriya jamgʻarmasi tomonidan viloyatimizda bolalar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ezgu tadbirlar oʻtkazib kelinmoqda

Jamgʻarmaning sogʻlomlashtirish dasturlari doirasida joriy yilning 26-31 may kunlari viloyat koʻp tarmoqli bolalar tibbiyot markaziga Koreya Respublikasining “Severance” Yonsey universiteti professorlari hamda Toshkent pediatriya tibbiyot institutining malakali jarrohlari tashrif buyurishdi.

Ular ishtirokida viloyatimizdagi bemor bolalarni bepul tibbiy koʻrikdan oʻtkazish va operatsiya yoʻli bilan davolashni koʻzda tutgan xayriya aksiyasi amalga oshirildi.

Xayriya tadbirining dastlabki kunlari 300 nafarga yaqin tugʻma nuqsonlar, kuyish va turli operatsiyalar asoratlari bilan ogʻriyotgan bemor bolalar tibbiy koʻrikdan oʻtkazildi. Kam taʼminlangan oilalar farzandlari, “Muruvvat uylari” tarbiyalanuvchilari, shuningdek, kuchli tibbiy zarurat tufayli tanlab olingan 35 nafardan ziyod bolajonlar jarrohlik yoʻli bilan sogʻlomlashtirildi. Koreyalik professorlar Park Byong Yung, Kim Yong Uk, Chong Yong Unlar operatsiya jarayonlariga bosh-qosh boʻlishdi.

-Respublikamizda qariyb yigirma yil muqaddam boshlangan bunday xayriya tadbirlari natijasida minglab bolalarimiz sogʻlom hayotga qaytarildi, -deydi Respublika Sogʻliqni saqlash vazirligi bosh bolalar plastik jarrohi Murodjon Jaʼfarov. -Mazkur yoʻnalishda xalqaro tajribalar oʻzlashtirilib, poytaxtimizda “Bolalar plastik xirurgiya markazi” ochildi. Bugungi kunda plastik jarrohlik boʻyicha malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash masalasiga eʼtibor qaratildi. Viloyatda oʻtkazilayotgan jarrohlik amaliyotlarida fargʻonalik yosh plastik jarrohlardan ham ishtirok etib, tajriba orttirishayotani respublikamizda mazkur soha istiqboliga boʻlgan umidimizni oshirmoqda.

Farzandi jismiga sogʻliq, yuziga tabassum qaytgan ota-onalarning shodumonligi, minnatdorligining cheki yoʻq.

-2015 yili qizim tanglay nuqsoni bilan tugʻilganda juda tushkun ahvolga tushib qolganmiz, -deydi Dangʻara tumanlik Asalxon Muhammadibrohimovning onasi Dilnozaxon Hamroeva. -Uning malakali professorlardan tomonidan operatsiya yoʻli bilan davolanishi butun oilamiz, farzandimning kelajagi uchun ham katta xursandchilik boʻldi.

-Ona uchun dunyoda bolasining sogʻligidan-da ortiq baxt yoʻq, -deydi Fargʻona tumani Kaptarxona qishlogʻida yashovchi Fotimaxon Aminjonova. -Ushbu xayriya tadbiri menga ana shu baxtni tuhfa qildi. Oʻgʻlim Davlatyor Moʻminjonovning oʻng qoʻl panjalari kuyish oqibatida nuqsonli boʻlib qolgan edi. Endilikda u ham tengqurlari singari barmoqlarini bemalol ishlata oladi. Buning uchun bolaparvar davlatimizdan, fidoyi va olijanob shifokorlardan minnatdorman.

Tugʻma va kuyish, turli operatsiyalar asorati sifatida saqlanib qolgan nuqsonlaridan xalos boʻlib, sogʻlom hayotga qaytgan bolajonlar orasida SHukronaxon Oʻrinboeva, Saidkamol Turobjonov, Imronbek Asqarov, Zilolaxon Musaeva, Biloliddin Moʻminov singari oʻgʻil-qizlar ham bor.

“Sogʻlom avlod uchun” xalqaro xayriya jamgʻarmasi tomonidan viloyatimizda bolalarni sogʻlomlashtirishga qaratilgan bunday ezgu tadbirlar dilbandlarimizga baxtli bolalik va porloq kelajak asosini tuhfa etayotgani bilan gʻoyat qimmatlidir.

Dilnavoz QOʻLDOSHEVA.

Jahongir MIRZAMATOV olgan surat.